

KUSHON SALTANATINING ILK POYTAXTI DALVARZINTEPA TARIXIDAN

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7833920>

To'rayeva Charos Qurbanmurot qizi

O'zbekiston Milliy Universiteti

Tarix fakulteti 2-bosqich talabasi

Annotatsiya.

Mazkur maqolada miloddan avvalgi I asr va milodiy II asrlar O'rta Osiyo hududlarida hukmronlik qilgan buyuk Kushonlar davlatining ilk poytaxti Dalvarzintepa haqida ma'lumotlar beriladi. Shuningdek, O'zbekiston san'atshunoslik ekspeditsiyasi tomonidan 1972-yilda topilgan "Dalvarzintepa xazinasi" haqida ma'lumotlar keltirilgan. XX asrda tadqiq etilgan Dalvarzintepada buddaviylik ibodatxonasi, hunarmandchilik ustaxonalari va shahar moddiy madaniyati namunalarining o'rganilishi va ularning ushbu shahar taraqqiyotidagi o'rni yoritilgan.

Kalit so'zlar.

Kushon davlati, Dalvarzintepa, Baqtriya, Surxondaryo, shahar, Kanishka, xazina, sag'ana, buddha ibodatxonasi, eksponatlar

Abstrackt.

This article provides information about Dalvarzintepa, the first capital of the great Kushan state, which ruled the territories of Central Asia in the 1st century BC and 2nd century AD. There is also information about the "Treasure of Dalvarzintepa", which is similar to the "Treasure of Amu Darya" and which is kept in the British Museum today. Dalvarzintepa, which was studied in the 20th century, is a study of the Buddhist temple, craft workshops and samples of the city's material culture and their role in the development of this city.

Key words.

Kushan state, Dalvarzintepa, Bactria, Surkhandarya, city, Kanishka, treasure, saghana, buddhist temple, exhibits.

Buyuk Kushon davlatining paydo bo'lishi va gullab-yashnagan davri milodiy I-III asrlar deya e'tirof etiladi. Kushonlar Parfiya, Xan davlati kabi mamlakatlar bilan bir qatorda Sharq sivilizatsiyasining ajralmas qismi bo'lgan Shimoliy Hindiston, Afg'oniston, O'rta Osiyonng katta qismi, Sharqiy Turkistonda hukmronlik qilgan. Podsho Kanishka hukmronligi davrida davlat hududi

Hindiston yarim orolining katta qismini, hozirgi Pokiston va Afg'onistonni, Janubiy Tojikiston va O'zbekistonni o'z ichiga olgan ulkan hududdan iborat saltanatni tashkil etgan. Davlatning paydo bo'lishi haqida arxeologiya, numizmatika va Xitoy manbalarida ma'lumotlar keltirilgan²³⁵.

Dalvarzintepa yodgorligini o'rganish XX asrning 60-yillaridan boshlangan. San'atshunoslik instituti (hozirda O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi San'atshunoslik instituti) da 1959 yilda "Tasviriyl san'at va me'morlik" bo'limi negizida "O'zbekiston san'atshunosligi ekspeditsiyasi" tashkil etiladi va ushbu bo'lim tomonidan Dalvarzintepada dastlabki arxeologik tadqiqotlar o'tkaziladi. 1967-yildan boshlangan keng ko'lamli qazishma ishlarida bir qator yetuk olimlar ishtirok etadi. Ular qatorida ekspeditsiya rahbari G.A. Pugachenkova arxeologlar - T.Belyayeva, B.Turg'unov, E.V. Rtveladze, restavratorlar - V.Lunev, N.Sotnikova, X.Xusnutdinxo'jayevlar bo'lgan. Arxeologik qazishmalar natijasida topilgan artefaktlar bugungi kunda Toshkent shahridagi O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi San'atshunoslik instituti fondida saqlanadi²³⁶.

Olima G.A. Pugachenkovning fikricha, Kushonlarning ilk poytaxti hozirgi Sho'rchi tumanidagi Dalvarzintepa xarobalari o'rnida bo'lgan va bu shahar Xitoy yilnomalarida "Xodzo" nomi bilan ma'lum deb ta'kidlaydi. Dalvarzintepada olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijasida olingan moddiy madaniyat namunalari o'zining ilmiy va amaliy ahamiyatiga ko'ra Xolchayon, Ayritom, Qoratepa kabi Kushonlar davri yodgorliklari namunalaridan qolishmaydi.

Bu davrda vohada ikkita yirik markaz mavjud bo'lib, bulardan biri Amudaryo bo'yidagi Tarimta (Termiz) bo'lsa, ikkinchisi esa Chag'onrut (Surxondaryo) bo'yidagi Dalvarzin shahri bo'lgan. Dalvarzintepa - Surxondaryo viloyati Sho'rchi tumanidan 10 km shimoli-sharqda joylashgan maydoni 47 gettarni tashkil etadi yodgorlik 2 qismdan iborat qudratli mudofaa devori (qalinligi 10 metr) bilan o'rab olingan shoh saroyi qal'asi va shaharning o'zidan iborat bo'lgan. Shahar ham mudofaa istehkomi tizimiga ega bo'lib, bu yerda aslzodalar, hunarmandlar, kulollar, savdogarlar va ruhoniyalar istiqomat qilishgan²³⁷.

Dalvarzintepada arxeologik qazish ishlari olib borilishi natijasida bu hududda Kushonlar davriga oid imoratlarning xarobalari ochiladi. O'rganishlar natijasida katta ma'muriy binoning xarobasi aniqlanib, bu bino xonalaridan o'zining o'lchami bilan ajralib turadigan bo'yi 11,6 metr, eni esa 9,6 metr bo'lgan xona topiladi. U

²³⁵Ртвеладзе Э.В. Кушансское царство: династии, государство, народ, язык, письменность, религии. – Т.: Историческая библиотека, 2019. – С. 25.

²³⁶ Pugachenkova G.A. Les tre'sors de Dalverzine-tepe. Leningrad. Editions d'art Europe, 1978. – P. 53.

²³⁷ O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. "D" harfi: Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. 158 b.

devorlarining qaliligi va suvoqlarining sifatliligi bilan ajralib turadi. Xonani tomi tekis bo'lgani uchun qadimda to'rtta ustunga tayanib turgan, bizgacha ustunlar saqlanib qolmagan bo'lsada ularning ohaktoshdan yasalgan tagkursisi yetib kelgan. Ayrim taxminlarga ko'ra ustunlar archa daraxtidan yasalgan²³⁸. To'plangan ma'lumotlar turli xil fikr va qarashlar kelib chiqishiga sabab bo'lib, hozirgacha bu xonaning kimga, qaysi tabaqaga tegishli ekani aniq yechimini topmagan. Taxmin qilinishicha, bu xona qadimda shahar hokimi, qandaydir amaldorning qabulxonasi yoki mehmonxonasi bo'lgan. Qazishmalar davomida Dalvarzintepa turar-joy binolarining ajralmas xususiyati sifatida boy, ko'p xonali uylardan tahqari oddiyalarida ham ibodat qilish uchun alohida ajratilgan xonalar bo'lgan va u yerda har kuni muqaddas olov yoqish uchun maxsus joyda marosim o'tkazilgan.

Mil. avv. I asr oxiri va milodning boshlarida Shimoliy Baqtirya hududida Dalvarzintepadan boshqa bunchalik yirik shahar manbalarda qayd etilmaganini ko'rishimiz mumkin. Dalvarzintepa mavzelari (kvartallar) asosan sinfiylik tamoyili asosida qurilgan. Ularning nechta uydan iboratligini aniqlash qiyin ekanligini olib borilgan tadqiqotlar natijasi ko'rsatadi, ammo uy xo'jaliklarning umumiyligi sonini tasavvur qilish mumkin. Topilgan binolar turli o'lchamlarga, maqsadlarga va maydonlarga ega²³⁹. Shahar hududida uni bir qancha mahallalarga ajratgan shoh ko'chalar, shuningdek, tor ko'chalari bo'lgan. Kengligi 12 metrga yaqin shoh ko'chalardan biri badavlat fuqarolarning uylaridan ikkitasiga borib taqaladigan badavlat fuqarolarning mahallasidan tashqari shaharda, arkga (qo'rg'on) yaqin yerda hunarmand va kulolarning uylari joylashgan. Yana topilmada otda o'tirgan, og'ir qurollangan zirh kiygan katafrakt tasviri saqlanib qolgan. Qazishma ishlari olib borilgan vaqtida shuningdek, fil suyagidan yasalgan ko'plab buyumlar, jumladan, dunyodagi eng qadimgi shaxmat donalari (I-II asrlar) topilgan. Shuningdek, sayqallangan toshdan yasalgan buyumlar, mis tangalar, qimmatbaho toshlardan yasalgan munchoqlar, Yunon-Baqtriya davriga oid yupqa devorli sopol buyumlar ham topib o'rganilgan. Topilmalar orasida o'sha davr xalqlarining musiqiy didi haqida ma'lumot beruvchi musiqachilarining siymolari katta qiziqish uyg'otadi. Musiqachining terakota figurasi - "Baqtriya arfasi" ayniqsa Yaqin Sharqda mashur bo'lgan "samoviy musiqa" asbobi haqida tasavvur beradi.

Dalvarzinning shimoli-g'arbiy qismida Kushon ma'budalaridan biriga bag'ishlangan ibodatxona topilgan. Shahar devori tashqarisida esa budda ibodatxonasi va aslzodalar dafn etiladigan daxma topilgan. Asosiy shoh

²³⁸Pidayev Sh. Sirli Kushonlar sultanati – T.: Fan, 1990. 24 b.

²³⁹Ртвеладзе Э.В. Пугаченкова Г.А. Северная Бактрия-Тохаристан. – Т.: 1990. – С. 73.

ko'chalardan biri o'tgan shahar markazida Budda majmuasi ulug'vor haykallari bo'lган ibodatxona qad ko'targan. Kulolchlik kvartalidan fil suyagidan yasalgan taroq topilgan. Hindlarga aloqador turli ashyolar xususan budda ibodatxonalarini va haykaltaroshligi, kxaroshti yozuvidagi tilla panjaralar, fil suyagidan yasalgan buyumlar, kovri qobig'i, ba'zi turdag'i munchoqlarning topilishi, Hindistonidan savdogarlar va boshqa ijtimoiy qatlarni vakillarining kelganligi, Dalvarzintepaning yirik markazi bo'lganini ko'rsatadi²⁴⁰.

Dalvarzintepada kulollarning mahallasi ham o'rganilgan. U yerdagi xonalar ikkinchi darajali deb topilgn. Kulollar yashaydigan xonalar hashamatli bo'lib devorlari turli bo'yoqlar bilan naqshlangan. Bundan xulosa qilish mumkinki, kulollar o'ziga ancha to'q bo'lgan va poytaxtda istiqomat qilgan. Dalvarzintepada mahalliy va xorijiy qadimshunoslar qariyb 50 yildan buyon arxeologik tadqiqotlar olib borib, bu yerda qadimgi shaharlar zodagonlarning uylari, diniy inshootlar, shaharning buddaviylik ibodatxonalarini, mudofaa istehkomlarini o'rgangan. Dalvarzintepada qal'a devorining shimoli-sharqidagi hududi asosan dafn inshootlari-qabrlar bo'lsa, shimoldan 200 metr masofada esa budda ibodatxonasi joylashgan. Dalvarzintepada bino va sag'ana qoldig'i bo'lib, uning eng pastki qatlamida odamlar yotgan holda xumga ko'milgan ekan. O'rta qatlamda avval daxmada tozalangan odam suyaklari qayd qilingan. Demak, o'rta qatlamda ko'milgan odamlar Zardushtiylar odatiga binoan ko'milgan. Yuqori qatlam odamlari esa birbirlari ustiga ko'milgan. Mazkur sag'analar mil. avv. II-I asrlarda qurilgan bo'lib, undan Kushonlar davrida ham foydalanilgan. Bu yerdagi qazish ishlariga rahbarlik qilgan arxeologik E.V. Retveladzening fikricha, mazkur sag'analar bir urug'ga qarashli bo'lgan.

Dalvarzintepa yodgorligida olib borilgan tadqiqotlar hamda o'rganishlar davomida topilgan ashyolar uning tarixi naqadar boy ekanidan dalolat beradi. Buning isboti sifatida "Dalvarzintepa xazinasi" ni ko'rishimiz mumkin. 1972-yil olib borilgan arxeologik qazilma ishlari mobaynida eramizning I asriga tegishli Dalvarzintepada tarixdagi eng yirik topilmalardan biri bo'lgan 36 kg ga yaqin oltin buyumlar xazinasi topilgan. "Dalvarzin xazinasi" o'zining ilmiy ahamiyatiga ko'ra mashhur, hozirda Britaniya muzeysiда saqlanayotgan "Amudaryo xazinasi"dan qolishmaydi.

Olimlar tomonidan bu xazina tog'risida ham ko'plab qarashlar ilgari surilgan. G.A. Pugachenkova Dalvarzin xazinasini Hindistonning shimoliy-g'arbi qismidagi

²⁴⁰Ртвеладзе Э.В. Великий индийский путь: из истории важнейших торговых дорог Евразии. СПб.: Нестор-История, 2012. – С.195.

uy egasi tomonidan qo'lga kiritilgan urush o'ljası deya hisoblaydi. Kushonlarning qimmatbaho buyumlari butun Markaziy Osiyo chegarasida ilk bor topilganligi uchun mashurdir. Dalvarzin xazinasining yana bir qimmatli jihat shundaki, bu buyumlar antik dunyo davri san'atida tutgan o'rni yuqori ekanligi va topilmalarning hammasi shu hududda yashagan aholining diniy e'tiqodlari va madaniy hayotning turli tomonlari to'g'risida tasavvur berishi bilan farq qiladi. Unda topilgan taqinchoqlar Afg'oniston, Pokiston va Hindistondagi taqinchoqlarga o'xhash bo'lsada, lekin ularni Shimoliy Baqtriya ya'ni hozirgi O'zbekiston janubi Surxondaryo hududida yashagan mohir ustalar tayyorlagani aniq. Xazinagi buyumlar ajdodlarimizning qo'shni xalqlar va mamlakatlar bilan qadimdan savdosoti, faol madaniy aloqada bo'lganligining yorqin daliidir. Dalvarzintepa xazinasi yaratilgan va foydalanilgan davrga kelsak, u milodning boshlari, yani Kushon imperiyasining gullagan davri deya fikr bildirilsada, dunyo arxeologlari bu borada hali aniq bir xulosaga kelishmagan.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, Dalvarzintepa yodgorligining jahon va O'rta Osiyo tamadduni va madaniyatida tutgan o'rni beqiyosdir. Dalvarzintepaning bizga hali noma'lum bo'lgan ko'p sahifalari bor va asrlar davomida o'z sirlarini yer ostida saqlagan bu tarixiy yodgorlik bo'yicha davom etadigan ilmiy izlanishlar tariximizni yangi ma'lumotlar bilan boyitadi.

ADABIYOTLAR:

1. Ртвеладзе Э.В. Великий индийский путь: из истории важнейших торговых дорог Евразии. Санкт-Петербург. 2012. - С. 195.
2. Ртвеладзе Е.В. Кушанское царство: династии, государство, народ, язык, письменность, религии. Историческая библиотека. Ташкент. 2019. - С.25.
3. Пугаченкова Г.А., Ртвеладзе Э.В, Северная Бактрия-Тохаристан. Ташкент. Фан. 1990. - С. 73.
4. Пугаченкова Г.А., Ртвеладзе Э.В. Далварзинтепа – кушанский город на юге Узбекистана. Ташкент., "Фан" 1978. - С.11.
5. Pugachenkova G.A, Les tre'sors de Dalverzine-tepe. Editions d'art Europe Leningrad. 1978. P.53.
6. Pidayev Sh. Sirli Kushonlar saltanati. - Toshkent. Fan. 1990. - B. 24-25.
7. O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi Toshkent. Davlat ilmiy nashriyoti, 158 b.